

PLYONKA OSTIDAN SUG‘ORISH QUVURLARINI TASHLOVCHI QURILMA TAVSIFI

Maxmudova Maftuna Maxsud qizi

Qo‘chqorov Jurat Jalilovich

Qodirov Zayniddin Zaripovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

***Annotatsiya:** Maqolada bayon etilgan plyonka ostidan sug‘orish quvurlarini tashlovchi qurilma qishloq xo‘jalik ishlab chiqarilishida, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda resurstejamkor qurilma ekanligi va ularning ish texnologiyasi to‘plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish texnologiyasiga taa‘luqli.*

***Kalit so‘zlar:** qora plyonka, sug‘orish quvuri, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi, sug‘orish, tuproq, unumdorlik, qishloq xo‘jaligi, bug‘lanish, sho‘rlanish.*

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mavjud ekin yerlarini meliorativ holatini yaxshilash va undan yuqori hosil olish bevosida texnika va texnologiyalarga bog‘liq. Ushbu texnikalarda samarali va to‘g‘ri foydalanish, shu bilan birga ularning yangi turlarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb ilmiy yechimini kutayotgan masalalaridan biridir.


Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, suvni tejab foydalanish kabi ishlar tobora avj olmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki yana bir dolzarb muammoga aylanib borayotgan yerlarni meliorativ holati buzilishi va sho‘rlanish darajasining oshib borishidir. Bu muammoni qisman oldini olish bu sifatli tekislashga bog‘liqdir.

Mulchalash deb, ekin yoki ko‘chat atrofidagi tuproq yuzasini turli materiallar bilan berkitishga aytiladi. To‘shama to‘shashdan maqsad ekin dalasidagi tuproqning

ustki qatlamida namlik, xavo va issiqlik rejimini ma'lum miqdorda doimiy bir xilda saqlashdan iboratdir.


Turli xil ekinlar va tuproqlar uchun turlicha to'shama materiali yaxshi natija beradi. Har doim mulcha to'shama begona o'tlarning o'sishiga to'sqinlik qiladi, tuproqning zichlanishini kamaytiradi va tuproq yuzasidagi bo'ladigan bug'lanishini kamaytiradi.

Plyonka ostidan tomchilatib sug'orish bo'yicha (T.Usmonov va boshqalar tomonidan chop qilingan "Sug'orish mashina va uskunalari" Toshkent 2008, S.Mamatov va boshqalar tomonidan chop qilingan "Suv tejevchi sug'orish texnologiyalari asoslari" Toshkent 2022 yil) mavjudi sholi yetishtirish uchun plastik plyonkalardan foydalanib ishlatishga asoslangan (Способ возделывания риса на грядах при поверхностном капельном поливе подмулчирующей пленкой. (RU 2775557 C1), u tuproqning suv, havo va issiqlik rejimiga ta'sir etadi bundan tashqari uskuna tuproqdagi biologik jarayonlarni tezlashtirib, ekinlarni ozuqa moddalari bilan ta'minlashini yaxshilaydi. Provard natijada o'simlikni rivojlanishi va pishib yetilishi tezlashadi va hosildorlik oshadi. begona o'tlarni o'sishni oldini oladi ba'zi bir zararkunandalarga ziyon yetkazadi. Mavjud ish uskunasi turli ishlarda ishlatish imkoniyati mavjud emas.




1-rasm. Plyonka ositidan sug'orish quvurlarini tashlovchi qurilmaning umumiy ko'rinishi

Qurilmaning asosiy vazifasi resurstejamkor plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllash maqsadida, bir vaqtning oʻzida sugʻorish quvurlarini hamda sugʻorish quvurlari ustidan plyonka toʻshashga moʻljallangan. Plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllashdan asosiy maqsad, bugʻlanishga sarf boʻlayotgan suv isrofgarchilikni keskin kamaytirish, qishloq xoʻjaligi ekinlarining suvga boʻlgan talabini vaqtida qondirish va ulardan ekologik toza hamda barqaror, sifatli mahsulotlar yetishtirishdan iborat.



2-rasm. Plyonka ostidan sugʻorish quvurlarini tashlovchi qurilmaning old tomondan koʻrinishi

Taklif etilayotgan texnik yechimning asosiy vazifasi resurstejamkor plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllash maqsadida, bir vaqtning oʻzida sugʻorish quvurlarini hamda sugʻorish quvurlari ustidan plyonka toʻshashga moʻljallangan. Plyonka ostidan tomchilatib sugʻorish texnologiyasini qoʻllashdan asosiy maqsad, bugʻlanishga sarf boʻlayotgan suv isrofgarchilikni keskin kamaytirish, qishloq xoʻjaligi ekinlarining suvga boʻlgan talabini vaqtida qondirish va ulardan ekologik toza hamda barqaror, sifatli mahsulotlar yetishtirishdan iborat.



3-rasm. Plyonka ositidan sug‘orish quvurlarini tashlovchi qurilmaning old tomondan ko‘rinish sxemasi

Taklif etilayotgan plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizuvchi qurilma egiluvchan sug‘orish quvurlari joylashgan g‘altak, qora plyonka o‘ralgan g‘altak, asos rama, qora plyonka yo‘naltirigich, sferik disklar, egiluvchan quvur, egiluvchan quvurlarni yo‘naltiruvchi, ulagich, detallarni tutib turuvchi qulflardan tashkil topgan. Bu qurilma konstruksiyasi sug‘orishdagi suv isrofgarchiligini keskin kamaytirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarining suvga bo‘lgan ehtiyoji vaqtida qondiriladi hamda ekinlardan yuqori va barqaror hosil olishga erishiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, sug‘orilgan yerlarga suv tejoychi texnologiyalarni qo‘llash ekinlarga o‘z vaqtida sifatli ozuqalar borilishi va yuqori hosil olishga erishiladi. Shu bilan birgalikda sug‘oriladigan suvlarni 50-60% ga tejalishiga olib keladi, bu esa o‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki qishloq xo‘jaligini rivojlanishiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Способ возделывания риса на грядках при поверхностном капельном поливе подмульчирующей пленкой. RU 2775557 C1.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi № PF-4533 sonli farmoni.
3. “Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari” mavzusida ilmiy amaliy anjuman materialari II-qism. Toshkent 2013 yil
4. Kuchkarov J.J. Substantiation of the parameters of the disk levellers of the base: Abstract of the thesis. ... tech.fan.fail.doc.- Karshi, 2021.- 36 p.
5. Khasanov I S, Kuchkarov J J, Nuriddinov Kh 2020 IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1) 012174
6. Kuchqorov J, Musurmanov R, 2019 Int. J of Advanced Research in Science Engineering and Technology 10
7. Khasanov I S, Kuchkarov J J, Nuriddinov Kh 2020 IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1) 012174
8. Kuchkorov J.J., Musurmanov R K, Khasanov I S, 2019 International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology, 1